

Date: 7th December-2025

INKLUZIV TA'LIMDA SURDOPEDAGOG BÒLISHINIG ZARURIYATI.

Abdullayeva G.S

CHDPU, p.f.d.(DSc), profesor,

Qunduzaliyeva Rushana Xolmirzo qizi

Magistr 2 bosqich

Annotatsiya: Taqdim etilayotgan maqolaning mazmunida inkluziv sinfda maxsus pedagog bòlish zaruriyati, maxsus pedagogning vazifasi, inkluziv ta'lim samaradorligida maxsus pedagogning tutgan o'rni haqida malumot keltirilgan.

Abstract: The content of the presented article provides information about the need to be a special pedagogue in an inclusive class, the task of a special pedagogue, the role of a special pedagogue in an inclusive class.

Аннотация: Содержание представленной статьи даёт информацию о необходимости специального педагога в инклюзивном классе, роли и задачах специального педагога в м эффективности инклюзивного образования.

Kalit sòzlar: inkluziv sinf, maxsus pedagog, alohida ehtiyojli bolalar, korreksion mashg'ulot, individual reja.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

Belgilab qo'yilsinki:

2021/2022 o'quv yilidan boshlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko'maklashadi deb ta'kidlangan va shunga ko'ra maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarining salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar uchun individual yondoshuv, maxsus individual o'quv dasturlari ishlab chiqilishi talab qilinadi. Maxsus pedagoglar inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlatiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi. Maxsus pedagoglar boshqa o'qituvchilar bilan birgalikda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilari bilan ishlash rejasini tuzadi va ularni sinfga uyg'unlashtiradi. Maxsus pedagoglar koreksion ta'limni olib boradi, mashg'ulotlarning mazmuniga va o'quvchilarning imkoniyati hamda ehtiyojlariga mos metodlarni tanlaydi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi. Boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlar, kichik guruhlarda va yakka tartibda mashg'ulotlar olib boradi.



Date: 7th December-2025

Maxsus pedagogning muhim vazifalaridan biri inkluziv sinfda dostona munosabat muhitini yaratish borasida ish olib borish. Bu borada ota onalar sinf o'quvchilari, psixolog, shifokor bilan hamkorlikda dostona munosabat muhitini yaratuvchi suhbatlar olib borish, mashg'ulot, maslahatlar olib boradi. Maxsus pedagog har bir o'quvchining anamnistik malumotini yigadi va u orqali bolani imkoniyati va ehtiyojini aniqlaydi. Kelgusida anamnistik malumotlar asosida har bir bolaning imkoniyati va ehtiyojiga mos individual dastur va reja tuzadi, to'g'ri faoliyat olib borishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Maxsus pedagogning vazifalarida muhim yo'nalishidan biri sinf o'qituvchisi va ota ona bilan hamkorlikda har bir o'quvchining rivojlanish xaritasini tuzish, va rivojlanish monitoringini olib borish hisoblanadi. Maxsus pedagogning faoliyati psixolog, sinf o'qituvchisi hamda tibbiyot xodimi bilan kompleks ravishda olib boriladi. Tibbiyot xodimi bolaning rivojlanish monitoringini olib boradi. Psixolog psixologik rivojlanish monitoringini olib boradi, maxsus pedagog esa kompleks monitoring asosida o'quvchi bilan korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar olib borishni amalga oshiradi. Maxsus pedagog tomonidan olib boriladigan barcha maxsus pedagogik yondoshuvsiz inkluziv ta'lim samaradorligiga erishilmaydi.

Ayni paytagi vaziyatda alohida ehtiyojli bolalar rejali asosda va stixiyali tarzda inkluziv ta'limda bo'lib, maxsus pedagog shtati ajratilmaganligi sababli bu bolalarning ehtiyoji va imkoniyati doirasida ta'lim olish imkoniyatidan mahrum holatda bo'lib qolish holatlari kuzatilmoqda.

Xulosa: 1. Inkluziv ta'lim tegishli ixtisoslik va kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi tufayli ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir qilishni davom etmoqda;

2. Maxsus pedagog faoliyat doirasi konkretlashtirilmaganligi sababli maxsus pedagoglar o'z faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda (Telegramm kanalidagi "Inkluziv ta'lim amalda" kanali ma'lumotlari).

ADABIYOTLAR:

1. Fayziyeva U.Y. Alohida ehtiyojli bolalarning inkluziv sharoitda ta'lim olishining tashkiliy va metodik asoslar. Maktab va hayot Ilmiy-metodik jurnal/№ 5/2021.B- 7-9
2. Fayziyeva U.Y. Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан. "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш" Илимий-методикалық журнал 2023 2/1. B- 248-256.
3. Fayziyeva U.Y. Условия для качественной и эффективной организации инклюзивного образования Inkluziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2021yil "Lesson-Press" nashriyoti 2021. B- 274-278
4. Fayziyeva U.Y. Инклюзив таълим самарадорлигини таъминлашнинг шарт-шароитлари. "Замонавий мактабда таълим ва жамият алоқадорлиги: муаммо ва ечимлар" Республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент вилояти, "Renessans press", 26.06.2021. B- 104-107

